

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ

# МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ

Республика илмий-амалий конференция  
материаллари тўплами



Тошкент 2021

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik o’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutq.T.”O’zbekiston” NMIU. 2016 y.
2. A. A. Abduqodirov, A.X.Pardayev. Masofali o’qitish nazariyasi va amaliyoti.- T.: Fan, 2009 y.
3. Haydarov F.I. Xalilova N.I Psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi - T. Fan va texnologiyalar 2007 y.
4. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. - T.: O’qituvchi, 2001 y.

## **MASOFAVIY TA’LIMDA O’QUV FAOLIYATINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALABLARI**

**M.M.Nazarova** - Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasini o’qituvchisi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimida ham jiddiy islohatlar amalga oshirildi, ta’limning sifatini yaxshilashga kirishildi. O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov o’z asarlarida malakali kadrlar tayyorlashni yo’lga qo’yish, ta’lim va tarbiyani isloh qilish zarurligi haqida juda ko’p bora ta’kidlaganlar. Bugungi kun auditoriyalari avvalgilaridan katta farq qiladi. Hozir yoshlar qulay va zamonaviy markazlarda, maktablarda o’qishni xohlaydi. Shunga monand auditoriyalar ham kompyuter, iPad, planshet, smart doskalar va boshqa turdagi ta’lim vositalari bilan jihozlangan. Shuningdek, hozirgi talabalar an’anaviy uslubda o’qishni istamaydi, aksincha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim tarafdori. Shuning uchun axborot texnologiyalarini ommaviy va samarali qo’llash orqali ta’lim tizimini raqamlashtirish davr talabi. Endi o’qituvchilar ham odatiy usulda o’qitmaydi. Chunki rivojlangan davlatlarda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham intellektual salohiyati yuqori avlod voyaga yetmoqda. Bunday muhitda kamol topayotgan yoshlarning fikrlashi va axborotni qabul qilish tarzi oldingi fikr yuritish va bilim olish jarayonidan tubdan farq qiladi.

Ta’limning yangi usullarini joriy qilish, ta’lim islohotlarini amalga oshirish bugungi kunimiz uchun eng muhim masala hisoblanadi. Shu boisdan bugungi kunda talabalarga sifatli ta’lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo’lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo’llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o’qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo’lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarning umumiy ma’lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiiq etish jarayoni kechmoqda. Shu o’rinda savol tug’iladi. Xo’sh, masofaviy o’qitishning o’zi nima?

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir. Demak masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jarayon ekan. Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud.

Masofaviy o'qitishning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XVIII asrning oxirida Yevropada muntazam va qulay pochta aloqasi o'rnatilganda, "muxbirlarni tayyorlash" kabi hodisa yuzaga keldi. O'quvchilar o'qituvchilar bilan yozishmalar olib borishdi, o'quv materiallarini pochta orqali olishdi. Va ular imtihonlarni o'z hududidagi ishonchli odamga topshirishdi yoki ilmiy rahbar shaklida pochta orqali rahbariga yuborishdi. Rossiyada bu jarayon XIX asrning oxirlarida bo'ldi. 1979-yilda Xitoyda masofaviy ta'lim tarixida birinchi marta universitetning talabalar bilan o'zaro aloqasi radio va televizion eshittirishlar orqali amalga oshirila boshlandi, keyinchalik audio kassetalar keng tarqaldi [2,98-b]. Ikki tomonlama o'zaro yuzmayuz maslahatlashuvlar, qisqa muddatli kurslar va yozishmalar orqali amalga oshirildi. Bugungi kunda bosma va ommaviy axborot vositalarining pochta jo'natmalari bilan bir qatorda zamonaviy kompyuter texnologiyalari tobora ko'proq qo'llanilmoqda: audio / video nferentsiyalar, E-Learning (e-learning), online Learning (onlayn ta'lim), Internet-konferentsiyalar, Internet-translyatsiyalar. Ushbu texnologiyalar talabalarga o'qituvchilar bilan real vaqt rejimida, qaerda bo'lishidan qat'i nazar, test topshirish, imtihon topshirish imkoniyatini beradi. Turli yoshdagi va jismoniy qobiliyatlari turli xil odamlar masofadan turib ma'lumot olishlari mumkin. Mustaqillikning yuqori darajasi bilan talabalar deyarli har qanday vaqtda o'qituvchi bilan bog'lanishlari mumkin. Ushbu o'qitish uslubining afzalligi shundaki, u psixologik jihatdan qulay, tanish muhitda, individual tempda amalga oshiriladi. O'qish kursini tugatgandan so'ng, o'quv dasturiga qarab talabalarga diplom yoki sertifikatlar beriladi.

Masofaviy o'qitish tizimini ikkiga bo'lish mumkin: Birinchisi, oliy o'quv yurtlarida an'anaviy ta'lim olish tizimi va masofaviy o'qitish tizimini o'zaro uzviy bog'lagan holda o'qitishdir. Buning uchun ta'lim muassasasi (inistitut, universitet) axborot texnologiyalari sohasi yaxshi rivojlangan bo'lishi, elektron kutubxonalar va texnik jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Texnik jihozlarga kompyuterlar, tarmoq qo'rilmalari, yuqori tezlikdagi Internet tarmoqlari, video konferentsiya

jihozlari va boshqalar. An'anaviy bilan masofaviy ta'limni o'zaro bog'lashda universitet (institut) professor-o'qituvchilari muhim rol o'ynaydi. Ular ma'ruza, amaliyot, laboratoriya, video darsliklar, taqdimotlar va boshqalarni moodle (masofaviy ta'lim tizimining bir turi bo'lib, Web muhitida o'qitish va on-line rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi, vebga yo'naltirilgan dasturiy majmua hisoblanadi.) tizimiga joylashtirishlari kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi talabalarga ma'ruza paytida moodle tizimiga joylashtirilmagan ma'lumotlarni yetkazishi kerak. Moodle tizimining yana bir qulayligi shundan iboratki, ma'ruza darslarni kamaytirib amaliy, laboratoriya darslarini ko'paytirish mumkin. Buni amalga oshirish uchun moodle tizimiga ma'ruza matnini shunday joylashtirish kerakki, talaba o'qib, tushinib olishi lozim. Buning uzun faqat ma'ruza matni emas, balki, mavzuga mos keladigan video darslarni, klaster metodlarini joylashtirish kerak. Masofali o'qitishning bunday modeli ilk bor Avstraliyaning yangi Angliya universitetida tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning yetakchi oliygo'harida foydalaniladi. Ikkinchisi, masofadan turib o'qish tizimidir. Bu moodle tizimida talaba va o'qituvchi fazoviy muloqatda bo'lish imkoni yaratilgan. Mana shu masofadan o'qitish tizimi so'nggi yillarda G'arb ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Bunda talaba dunyoning istalgan joyida mustaqil o'qish imkoniyatiga ega va talabalar soni cheklanmagan, vaqtning ahamiyati yo'q, eng muhimi, bu tizimda online darslarning bo'lishi, o'qituvchi online savol-javob o'tkazish imkoniyatlari mavjud. Bunday tamoyilda o'qitish tizimi bir nechta universitetlarda, jumladan, Buyuk Britaniyaning United Kingdom Open universitetida tashkil etilgan[1,252-256b].

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi:

- Moslashuvchanlik – Ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi.
- Modullilik – Bir biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi.
- Parallellik – O'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.
- Keng qamrovlilik – Ko'p sonli o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralariга murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati.
- Iqtisodiy tejamkorlik – O'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi.

- Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta’lim oluvchining yashash joyi, sog’lig’i va moddiy ta’minlanish darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli ta’lim olish imkoniyati.
- Internatsionallilik – Ta’lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.
- O’qituvchining yangi roli – Masofaviy o’qitish o’qituvchining o’qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o’qituvchi o’zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.
- Sifat – Masofaviy o’qitish usuli ta’lim berish sifati bo’yicha kunduzgi ta’lim turidan qolishmaydi. Balki, mahalliy va chet ellik dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o’quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o’quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin.

Masofaviy o’qitish usulining o’ziga xos kamchiliklari ham mavjud bo’lib, u quyidagilarda yaqqol namoyon bo’ladi:

- ❖ Kuchli motivatsiya zarur–Masofaviy talaba deyarli barcha o’quv materiallarini mustaqil ravishda o’zlashtiradi. Buning uchun kuchli iroda, mas’uliyat va o’zini o’zi boshqarish talab etiladi. Hamma ham istalgan o’qitish sur’atini tashqi nazoratisiz saqlab turishga muvaffaq bo’lavermaydi.
- ❖ Masofaviy ta’lim muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun mos emas–Masofaviy o’qitish sharoitida talabalarning bir-birlari va o’qituvchilar bilan shaxsiy aloqalari juda kam, agar umuman bo’lmasa. Shuning uchun ushbu mashg’ulot shakli muloqot qobiliyatlarini, ishonchni, jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mos emas.
- ❖ Amaliy bilimlarning yetishmasligi–Ko’p sonli amaliy darslarni o’z ichiga olgan mutaxassisliklarni o’qitish masofadan turib qiyinlashadi. Hatto eng zamonaviy simulyatorlar ham kelajakdagi shifokorlar yoki o’qituvchilar uchun "jonli" amaliyotni almashtirmaydi.
- ❖ Foydalanuvchini identifikatsiya qilish muammosi–Hozircha talabaning imtihonlardan yoki testlardan halol va mustaqil ravishda o’tganligini kuzatib borishning eng samarali usuli bu videokuzatuvdir, bu har doim ham mumkin emas. Shu sababli, yakuniy sertifikatlash uchun talabalar shaxsan universitetga yoki uning filiallariga kelishlari kerak.
- ❖ Kompyuter savodxonligining yetishmasligi–Rossiyada masofaviy ta’limga alohida ehtiyoj chekka hududlarda paydo bo’ladi. Ammo, tashqi ko’rinishda, o’qishni istagan har bir kishi Internetga ulangan kompyuterga ega emas.

Bugungi kunda uchinchi tashabbus doirasida qilinayotgan samarali ishlar yoshlarning kompyuter savodxonligini, intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo’llashga qiziqish va zamonaviy usullarni joriy etishga e’tibor kun sayin kuchaymoqda. Sababi, ilgari o’quv maqsadi yoshlarning tayyor bilimlarni o’zlashtirib, yodlab olishiga qaratilgan edi. Endi zamonaviy texnologiyalar ularni bilimni o’zi qidirib topishga, mustaqil xulosalar chiqarishga o’rgatmoqda. Mamlakatimizda zamonaviy

ta'lim tizimida turli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish imkonini beradi. Shu maqsadda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitishda ta'lim uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilyapti. "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturini ishlab chiqish jarayoni ustida qizg'in ish ketmoqda. Kelgusida raqamli universitetlarni tashkil etish bo'yicha ham qator ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, Coursera (AQSh), EPAM (AQSh, Belarus) va Open University Malaysia (Malayziya) singari tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda ulardan o'quv materiallarini olishga kelishildi. Bu bilan hududlardagi yoshlarning, jumladan, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining ishdan ajralmagan holda ta'lim olish orzusi ro'yobga chiqadi. Masofadan o'qitish texnikasi shu paytgacha mavjud bo'lgan ta'lim turlaridan farqli o'laroq, barcha o'quvchi va talabalar, umuman, ta'lim olishni xohlovchilarga yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalarida asosiy ta'lim va ish faoliyatidan ajralmagan holda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratdi. Masofaviy o'qitish shaklining dasturiy apparat kompleksini yaratish maqsadida "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida masofaviy ta'limni boshqarish axborot tizimlari majmuasi hamda ta'lim kontentlarini yaratish va joriy etish" loyihasi ishlab chiqilib, vazirlik tomonidan ekspertizadan o'tkazilgan. Masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha axborot tizimining texnik topshirig'i, texnik loyihasi hamda TATUda masofaviy ta'limni joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Tizim universitet strukturasi, talabalar, o'quv rejalari va dasturlarini boshqarish, o'quv materiallarini taqdim qilish, fanlarning o'quv topshiriqlarini hamda nazorat va imtihonlarni, hisobotlarni nazorat qilish kabi asosiy modullardan iborat.

Masofaviy o'qitish tizimi boshqa barqaror ta'lim shakllariga nisbatan bir qator inkor etilmaydigan ustunlikka ega. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qulay sharoitda o'qish imkoniyati - uyda yoki idorada;
- Har bir talabaga individual yondoshish;
- Tashkilot va mustaqillik kabi muhim fazilatlarni rivojlantirish;
- Vaqt va harakatni sezilarli darajada tejash;
- O'qituvchi bilan aloqa qilish imkoniyati - individual rejimda qiziqish bildiradigan savollar berish imkoniyati;
- Talabaning qobiliyatlarini inobatga olgan holda shaxsiy shartlar[3,67-b].

#### An'anaviy va zamonaviy ta'limni qiyosiy tahlili

An'anaviy ta'lim	Zamonaviy ta'lim
Yangi avlodga bilim va tajriba berish	Talabalarning shaxsiy barkamolligini ta'minlash va rivojlantirish
Talabalarni hayotga tayyorlash	Qiyinchiliklarsiz yashashga o'rgatish

Hozirgidan kelgusida yaxshi bo'lishga tayyorlash	Doimiy o'zgarish jarayonida yashashga o'rgatish
Ta'lim maqsadi – bilim olish	Ta'lim maqsadi – o'zini rivojlantirish, barkamollilik
Talabalar maqsadini tayyor holda oladilar	O'zining huquqiy maqsadlarini qo'yishi va unga erishish yo'llarini tanlash
Talabalar nazorat turlaridan qochadilar	Ob'ektiv va o'z vaqtda nazoratga intilish
O'quv muassasalari o'zaro o'xshash	Har bir o'quv muassasasi yuksalish sari intiladi.

Aniq o'qituvchi

O'qituvchi tanlash imkoniyati

Masofaviy ta'lim tizimi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Birinchisi, dastur yordamida o'rganish jarayoni;
- Ikkinchidan, sinfdagi ta'limning ba'zi elementlari bilan bog'lanish, bu jarayon davomida olingan bilimlarni boshqarishning turli shakllari qo'llaniladi;
- Uchinchi mustaqil ish, shu jumladan uy vazifasini bajarish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish va tanlash.

Masofaviy o'qitishning mustaqil o'qishdan farqi nimada?

O'qitish jarayoni birinchi o'rinda masofaviy ta'limda o'zining tashkil etilishining interaktivligi, ya'ni o'quvchi va o'qituvchining aloqalari, o'quvchilarning o'zaro aloqalari bilan, bilimlarning aniq bir sohasiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Demak, masofaviy o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasi masofaviy ajralgan holda o'qitish vositalari to'plami-jumladan, elektron ma'ruza, darslik yoki kurslar bo'ladi. Mustaqil o'qish tizimida o'qituvchi bo'lmaydi, u o'quvchining mustaqil faoliyatidir. Masofaviy o'qitishning mustaqil o'qish tizimidan farqi ana shunda. Mustaqil o'qish videokassetadagi avtonom kurslar, televizion va radiodagi kurslar, kompyuter dasturlari va kompakt disklardagi dasturlar bilan ishlashdir. Shu qatorga o'qituvchi va talaba orasidagi aloqa ko'rilmaydigan tarmoqdagi dasturlar asosida o'qish jarayoni ham kiradi. Bu holda «masofaviy» atamasini qo'llash noo'rin, chunki, bu erda talabaning o'rgatuvchi dasturlar, turli tashuvchilardagi axborot ta'lim resurslari bilan mustaqil ishlash haqida gap boryapti. Talaba kitob, videokasseta va tarmoqdagi kurs bilan mustaqil ishlashi mumkin. Masofaviylik tushunchasi esa o'qituvchi bilan talaba masofa bilangina ajratilib turgan holdagina qo'llaniladi. Masofaviy shakl – bu o'qitishning sirtqi shaklining analogi emas. Bu erda sirtqi o'qish shaklidan farqli ravishda, ular maxsus Internet texnologiyalari vositalari yordamida bog'lanadilar. Masofaviy o'qitish bu kunduzgi, sirtqi, eksternat shakllar qatoridagi o'qitishning yangi shaklidir va unga aynan o'qitishning mustaqil tizimi sifatida qarash lozim.

Insonni o'qitish va tarbiyalashda qanday shakldan foydalanilmasin, u pedagogika, didaktika va xususiy uslubiyotning qonuniyatlariga mos kelishi va ularni o'zida mujassamlashtirishi kerak. Masofaviy ta'lim yoki masofaviy o'qitish asosiy yoki qo'shimcha bo'lishi mumkin. Keyingi holda biz masofaviy pedagogik faoliyat haqida gapirishimiz mumkin. (Masofaviy seminarlar, viqtorinalar, anjumanlar, olimpiadalar, aspirantlar bilan ishlashni tashkil etish.) Agar o'qitishning masofaviy shaklini mustaqil tizim sifatida qaraladigan bo'lsa, u holda axborotning elektron manbalarini, ya'ni virtual kutubxonalar, turli malaka oshirishlar, maslahat xizmatlari, multmediali elektron darsliklar, uslubiy birlashmalarni o'z ichiga olgan yagona axborot – ta'limiy muhitni yaratish zarurligi haqidagi mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Demak, gap masofaviy o'qitish haqida borar ekan, biz o'qituvchi, darslik (axborot-uslubiy ta'minot) va talaba mavjud bo'lgan tizimni ko'rib chiqamiz. Hozirgi zamonda masofaviy o'qitish tushunchasi bizda va chet elda tobora ko'proq tan olinayotganini ta'kidlash kerak. Bundan esa, o'z navbatida masofaviy o'qitishning didaktik ta'minotini – elektron kurslar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'qitish tizimining axborot ta'minotini, pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning uslub va shakllarini, pedagog-koordinatorlar va tyutorlar tayyorlash zarurati tug'iladi. Ma'ruza matnlarini, darslik va o'quv qo'llanmalarini elektron shaklga almashtirish- muammolarni hal qilmaydi, aksincha, masofaviy o'qitish jarayonini qiyinlashtiradi, xolos. Negaki, bunda o'quv materialini etkazib berish shakligina o'zgaradi. Tizimning boshqa barcha tashkil etuvchilari sirtqi o'qitishdagi kabi bajarilaveradi. Bundan kelib chiqadiki, nazariy ishlash, tajriba bilan tekshirishlar, jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlari talab qilinadi. Afsuski, biz uchun Internetda ko'rayotganimiz, kompakt disklarning ko'pchiligi pedagogikaning elementar talablariga javob bermaydi. Masofaviy ta'lim uchun ishlab chiqarilgan pedagogik mahsulotlar elementar didaktik talablarga javob bermaydi. Elektron kurslar, elektron darsliklarga xuddi dastur va darsliklar ishlanishiga qaraganday jiddiy qarash kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki - masofaviy o'qitish bugungi kunda nafaqat o'quv maskanlari uchun zarur, balki, bugungi globallashuv jarayonida katta-katta korxonamuassasalarga o'zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularning bilim darajalarini va ko'nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov.B.A.&Khasanova.S.K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1(1).
2. Andreev A.A. Masofaviy ta'limga kirish: o'quv qo'llanma. - M.: WU, 1997.
3. Malitikov.E.M. Masofaviy ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolari. Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlari / E.M. Malitikov, M.P. Karpenko, V.P. Kolmogorov // Huquq va ta'lim. - 2000. - № 1 (2).



47	<b>М.З.Хамдамова.</b> Масофавий таълимни жорий этишнинг илмий ва назарий аҳамияти	170-174
48	<b>А.К.Шамшетова.</b> Масофавий таълимни ташкил этишни психологик жиҳатлари	174-178
49	<b>С.Ю.Хайдарова., М.Б.Мирова.</b> Классификация электронных программ для эффективной организации дистанционного обучения	179-182
<b>III - ШҶББА</b> <b>МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ТАЛАБЛАРИ</b>		
50	<b>Liudmyla Halaievska.</b> Features of distance learning in ukrainian language lessons: motivational aspect	183-186
51	<b>М.Н.Усманова.</b> Дистанционное образование и инновационные технологии как условие повышения качества образования	186-193
52	<b>И.О.Хайдаров.</b> Масофавий ўқитишнинг ижтимоий психологик омиллари	194-197
53	<b>Х.Х.Жабборов., А.А.Ғайбуллаев.</b> Масофавий ишлашда инсонларда кузатиладиган руҳий ҳолатлар	197-199
54	<b>К.А.Садыкова.</b> Использование информационных технологий на уроках биологии с целью повышения качества усвоения нового материала	199-205
55	<b>Г.У.Усманова.</b> Использование новых педагогических технологий и качество образовательного процесса	205-217
56	<b>N.I.Xalilova.</b> Masofaviy ta'limning pedagogik- psixologik xususiyatlari	217-210
57	<b>Ф.А.Акрамова.</b> Масофавий таълимнинг педагогик - психологик жиҳатлари	211-216
58	<b>Ш.Т.Иззатова.</b> Масофавий таълимда ўқув фаолиятини бошқаришнинг психологик омиллари	216-218
59	<b>М.Абдуҷаббарова. Х.Ҳайдаров.</b> Масофавий таълим дастуридан фойдаланиш – педагогик маданиятнинг ахборот-коммуниктив сегменти сифатида	219-222
60	<b>И.Ғ.Раҳимова.</b> Масофавий таълим тизими афзалликлари, камчиликлари	223-226
61	<b>Э.Б.Олимов.</b> Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини инновацион ёндашувлар асосида ривожлантириш	226-232
62	<b>Б.Э.Тошматов.</b> Таълим жараёнида масофавий таълимнинг асосий педагогик-психологик хусусиятлари	233-236
63	<b>X.Y.Sharifbaeva., D.A.Abdurazzakova.</b> Mobil texnologiyalarni qo'llashning pedagogik-psixologik va uslubiy jihatlarini	236-244
64	<b>З.Э.Абдурахмонова.</b> Масофавий таълимда психология фанининг ўқитишнинг замонавий талаблари	245-247
65	<b>Н.М.Юсупова.</b> Шахсга йўналтирилган таълим - ўқув фаолиятини самарали бошқаришнинг педагогик-психологик омил сифатида	248-251
66	<b>Ш.Ш.Шарафова.</b> Масофавий таълимда жисмоний тарбия дарсларини ўқитишнинг сифат ва самарадорлигини ошириш	251-252
67	<b>M.D.Abdulmadjidova.</b> Masofaviy ta'lim tizimida talaba-yoshlarning psixologik bilimlarini oshirish	252-259
68	<b>M.M.Nazarova.</b> Masofaviy ta'limda o'quv faoliyatini boshqarishning pedagogik-psixologik talablari	260-265
69	<b>D.Y.Saytqulova.</b> Masofaviy ta'limda o'quv faoliyatini boshqarishning pedagogik psixologik talablari	265-272
70	<b>I.K.Jumaniyazova.</b> Masofaviy ta'limda inson emotsional holatlar psixologiyasi	272-276